



Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари. -2022. -№ 1(4).

ISSN: 2181-1342 (Online)

<https://scienceproblems.uz>

*Тарих фанлари*

**MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA  
XALQARO TURIZMNING RIVOJLANISHI VA UNING ME‘YORIY-  
HUQUQIY ASOSLARI**

**Murodov Halim Salimovich**

Buxoro davlat universiteti “Buxoro tarixi” kafedrasida tayanch doktoranti

**РАЗВИТИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ В  
ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ И ЕГО НОРМАТИВНО-  
ПРАВОВАЯ БАЗА**

**Муродов Халим Салимович**

Бухарский государственный университет, базовый докторант кафедры «История Бухары»

**THE DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL TOURISM IN UZBEKISTAN  
IN THE FIRST YEARS OF INDEPENDENCE AND ITS REGULATORY  
FRAMEWORK**

**Murodov Halim**

Bukhara State University, Basic doctoral student of the Department "History of Bukhara"

*Иқтибос келтириш учун / For citation / Для цитирования:*

Murodov H.S. Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda xalqaro turizmning rivojlanishi va uning me‘yoriy-huquqiy asoslari // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2022. – № 1 (4). – В. 6–18. <https://doi.org/10.47390/B1342142022N1>

*Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida xalqaro turizmni rivojlantirish maqsadida jahon standartlariga javob beradigan turizm industriyasi va infratuzilmasini barpo etishi, tizimda yangi tartib – qoidalar ishlab chiqishi hamda “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasini tashkil etilishi, xorijiy fuqarolarning respublikaga kirish, chiqish, bo‘lish qoidalari ishlab chiqilishi, sohada xususiylashtirishning amalga oshirilishi, xorijiy investorlarning jalb etilishi va ularga berilgan imtiyozlar, Buyuk Ipak yo‘lini qayta tiklashda O‘zbekistonning*

*ishtiroki kabi masalalar atroflicha o'rganilgan. Jumladan respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi "Meros" dasturi amalga oshirilishi, "Turizm to'g'risida"gi qonun va unda xalqaro turizmning davlat e'tiboridagi asosiy yo'nalish ekanligi borasidagi jihatlar atroflicha tahlil etiladi. Ilmiy kuzatishlar natijasida soha rivoji bilan bog'liq xulosa va takliflar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** "O'zbekturizm", Buyuk Ipak yo'li, xalqaro turizm, Buxoro, imtiyoz, vakolatxona, viza, "Inpro", konvertatsiya.

**Аннотация.** В целях развития международного туризма Узбекистан как независимое государство должен построить индустрию туризма и инфраструктуру мирового уровня, разработать новые правила и положения в системе и создать национальную компанию «Узбектуризм». подробно изучено участие, осуществление приватизации в отрасли, привлечение и льготы иностранных инвесторов, участие Узбекистана в реконструкции Великого Шелкового пути. В частности, подробный анализ реализации программы «Наследие» по развитию международного туризма в стране, Закона «О туризме» и то, что международный туризм является ключевым направлением государственного внимания. В результате научных наблюдений даны выводы и рекомендации, связанные с развитием отрасли.

**Ключевые слова:** «Узбектуризм», Великий шелковый путь, международный туризм, Бухара, привилегия, представительство, виза, «Инпро», конверсия.

**Abstract.** In order to develop international tourism, Uzbekistan, as an independent state, must build a world-class tourism industry and infrastructure, develop new rules and regulations in the system, and create a national company "Uzbektourism" participation, implementation of privatization in the industry, attraction and benefits of foreign investors, participation of Uzbekistan in the reconstruction of the Great Silk Road are studied in detail. In particular, a detailed analysis of the implementation of the "Heritage" program for the development of international tourism in the country, the Law "On Tourism" and the fact that international tourism is a key area of state attention. As a result of scientific observations, conclusions and recommendations related to the development of the industry are given.

**Key words:** "Uzbektourism", the Great Silk Road, international tourism, Bukhara, privilege, representation, visa, "Inpro", conversion.

**DOI:** 10.47390/B1342142022N1

O'zbekistonni rivojlangan xalqaro turizm industriyasiga tezroq integratsiyalashuvini amalga oshirish, milliy turizm mahsulotlariga jahon sayyohlik tashkilotlari e'tiborini qaratish, turizmning barcha turlarini rivojlantirishning imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi muammolarni hal etishdagi ahamiyatini kuchaytirish, turizmni davlatga valyuta olib keladigan iqtisodiyotning strategik sohasiga aylantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimov tomonidan 1992 yil 27 iyulda "O'zbekturizm" milliy kompaniyasini tashkil qilish to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan[1;B.2.]. PF-447-son farmoni xalqaro standartlarga mos milliy sayyohlik

tizimini yaratish, turizm industriyasi infratuzilmasini rivojlantirish, jahon turizm bozoriga chiqish, sohani boshqarishni takomillashtirish hamda iqtisodiy samaradorligini oshirish kabi vazifalarni belgilab berdi [2]. 1993 – 1994 yillardagi qabul qilingan “O‘zbekturizm” MK Ustavida [3], Vazirlar Mahkamasining 459-son qarorida [4] hamda 1993 yil 3 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infrastrukturasi yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori iqtisodiyotning yuqori samarador va xarajatlarni qoplaydigan sohasi bo‘lgan turizmning rivojlanishi uchun huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va moddiy-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo‘l ochdi [5; B.158.]. Xalqaro turizm bozorida milliy turizm salohiyatini keng targ‘ib qilish va turizm sohasining yetakchi markazlari bo‘lgan Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent kabi hududlarga chet el mashhur turistik brend kompaniyalar hamda chet el investorlarini jalb etish maqsadida 1994-yil 9-sentabrda Vazirlar Mahkamasining 459-son qarori qabul qilinib, unga ko‘ra Jahon sayyohlik tashkiloti (JST) va “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasining 1994-yil 3-6-oktabr kunlari Toshkent va Samarqand shaharlarida JSTning “Ipak yo‘li” xalqaro majlisini o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifi qabul qilindi [6].

JST (Jahon sayyohlik tashkiloti) seminarlarida O‘zbekistonning xalqaro turizm biznesi sohasidagi manfaatlarini ifodalovchi “O‘zbekturizm” MK 1994 yil Toshkentda BMT va YUNESKO shafeligida “Ipak yo‘li” Jahon sayyohlik tashkilotining xalqaro seminarini tashkil etdi. Registon maydonida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda “Ipak yo‘li” xalqaro loyihasini rivojlantirishda ishtirok etuvchi davlatlar “Ipak yo‘lida turizm: Samarqand Deklaratsiyasi”sini qabul qildi. 1995-yil oktabr oyida Toshkentda JST seminarining mantiqiy davomi sifatida “Ipak yo‘li bo‘ylab turizm” Birinchi xalqaro sayyohlik yarmarkasi bo‘lib o‘tdi. Unda 33 davlatdan 100 dan ortiq firmalar, Ipak yo‘lida joylashgan davlatlarning milliy turizm tashkilotlarining rasmiy delegatsiyalari ishtirok etdi [7;B.2.].

Sayyohlik industriyasining zamonaviy rivojlangan xalqaro turizm bilan globallashtirishni tezlashtirish uchun jadal islohotlar davri ya‘ni xususiylashtirish boshlandi. 1994 yilda ishlab chiqilgan “Turistik korxonalarini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish dasturi” chuqur tizimli - institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirishda juda katta ahamiyat kasb etdi. 1994—1995 yillar mobaynida «O‘zbekturizm» Milliy kompaniyasining 87,8% turistik obyektlari davlat tasarrufidan chiqarilib, xususiylashtirildi. Natijada turizm sohasida olinayotgan daromadlarning keskin o‘shishiga erishildi: 1993 yilda 11,3 million so‘m miqdorida daromad olinib, bundan 2,1 million so‘m foyda ko‘rilgan bo‘lsa, 1994 yilda 221,3 million so‘m daromad olingan va bundan 110,6 million so‘m foyda olingan. Kiritilgan o‘zgarishlar turizmni qabul qilish shaklini jadallik bilan rivojlantirdi. 1993 yildan 1995 yilgacha chet ellik

turistlarni qabul qilish 43 mingdan 92 minggacha ko'paydi. Turizmdan tushgan chet el valyutasi miqdori 34,4 mln. AQSH dollaridan 101,2 mln. AQSH dollarigacha ko'paydi. 1995 yilda jami tushgan daromadning turizm sohasidagi ulushi mamlakat yalpi ichki mahsulotida 9% ni tashkil etdi, valyuta tushumi 67%ni tashkil etgan [8; B.6]. Ushbu jarayonda O'zbekiston hukumati qayta tiklanayotgan xalqaro turizm yo'nalishi – Buyuk Ipak yo'li ahamiyatini, ayniqsa uning milliy turizm sohasini rivojlantirish dagi muhim rolini anglab, 1995-yil 2-iyunda “Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida” PF-1162-son farmoni qabul qilindi[9]. Unga ko'ra sohaning quyidagicha strategik vazifalari belgilandi:

Birinchiidan, Buyuk Ipak yo'lidagi Samarqand Buxoro, Xiva va Toshkentda xalqaro turizm bo'yicha maxsus ochiq iqtisodiy zonalar barpo etish hamda ushbu shaharlardagi aeroportlar va temir yo'l vokzallarida xorijiy sayyohlar uchun bojxona tartiblarining xalqaro standartlarga mos soddalashtirilgan tartibi;

Ikkinchiidan, Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentda yangi tashkil etiladigan sayyohlik tashkilotlari dastlabki foydani olgunga qadar uch yil mobaynida barcha turdagi soliqlardan ozod qilinishi, shuningdek, mazkur tashkilotlar va firmalar foyda (daromad) olgan birinchi yili foyda (daromad) solig'ining 50 foizini, ikkinchi yili — 75 foizini, uchinchi yildan boshlab — 100 foizini to'lashi;

Uchinchiidan, chet ellik investorlarga turizm yo'nalishida qo'shma korxonalar tashkil etgan uchun avvalgi imtiyozlarga qo'shimcha ravishda, olib chiqib ketiladigan foydadan 5 yil muddatgacha soliq undirilmasligi;

To'rtinchiidan, ikki oy muddatda xorijiy sayyohlar uchun qonun bilan taqiqlangan obyektlardan tashqari respublikaning butun hududida amal qiluvchi yagona turistik vizani o'rnatish, turizm industriyasi va infrastrukturasi rivojlantirishga hissa qo'shadigan tadbirkorlarga besh yillik kreditlar berish, “O'zsayohatinvestbank”ni tashkil etish;

Beshinchiidan, turizmda islohotlarni chuqurlashtirish, jahon standartlari miqyosidagi kichik va o'rta mehmonxonalar, motellar va kempinglar tarmog'i shakllantirilishini, tarixiy-madaniy meros keng ko'lamda targ'ib qilish, ilmiy-texnikaviy va investitsiya siyosatini hamda turizmda uzviy kadrlar siyosatini amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasi huzurida turizm bo'yicha Idoralararo kengash tuzish;

Oltinchiidan, qadimiy shaharlardagi yodgorliklarni asrash va foydalanish bo'yicha “Meros” dasturini ishlab chiqish hamda xalqaro turizmni rivojlantirish bo'yicha muammolarni joyida bartaraf etilishi uchun shaxsiy javobgarlik “O'zbekturizm”, “O'zbekiston havo yo'llari”, “O'zbekiston temir yo'llari” kompaniyalarining, Ichki ishlar vazirligining, Tashqi ishlar vazirligining, chegara va

bojxona xizmatlarining rahbarlari zimmasiga yuklatilishi kabi milliy turizm industriyasi va infratuzilmasi rivoji uchun xizmat qiladigan vazifalar shular jumlasidandir.

Ushbu PF-1162-son farmoni ijrosini ta'minlash va bu soha infratuzilmasini yanada zamonaviylashtirish maqsadida 1995-yil 3-iyunda Vazirlar Mahkamasining 210-son qarori qabul qilinib, unga binoan turizmni rivojlantirish bo'yicha idoralararo Kengash va xalqaro turizm bo'yicha maxsus ochiq iqtisodiy zonalar to'g'risidagi Nizomlarni tasdiqlash, "O'zbekiston havo yo'llari", "O'zbekiston temir yo'llari", Davlat soliq qo'mitasi "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi va boshqa tegishli tashkilotlar birgalikda sayyohlarni avia va temir yo'l transporti orqali tashishda imtiyozlar va chegirmalar berish kabi kirish turizmini rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladigan choralar belgilandi.

Shuningdek, Buxoro, Samarqand, Urganch va Toshkent shaharlaridagi aeroport va temir yo'l vokzallarida turistlar uchun zamonaviy maxsus bojxona zonalarini tashkil etish, "O'z avtoyo'l", "O'zavtotrans", "O'zbekturizm", "O'zbeksavdo", "O'zbekbirlashuv", Aloqa vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, "O'zdavneftmahsulot", viloyatlar va Toshkent shahar hokimlik lari sayyohlarga xizmat ko'rsatish uchun Toshkent – Samarqand – Buxoro – Urganch – Xiva avtomagistralini obodonlashtirish hamda yo'lbo'yi infratuzilmasi rivojlantirish maqsadida yangi servis xizmatlarini tashkil etish bo'yicha 1995 – 1998-yillarni o'z ichiga olgan kompleks dasturni ishlab chiqish kabi turizmning tashkiliy jihatlariga e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, joylashtirish vositalari va boshqa turistik obyektlar qurilishi bo'yicha xalqaro tenderlar o'tkazish, turistlarga yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatish, turistlarni tibbiy sug'urta qilish bo'yicha takliflar berish, bevosita aviaqatnovlar o'rnatilgan davlatlar va shaharlarda "O'zbekturizm"ning turistik vakolatxonalarini ochish, sayyohlar gavjum boradigan manzillarda amaliy va tasviriy san'at, xalq ijodkorligi buyumlarini markazlari va do'konlarini tashkil etish, malakali kadrlar tayyorlash uchun "Xalqaro turizm" o'quv-ishlab chiqarish markazi, "Ipak yo'li" xalqaro turistik-reklama-axborot nashri chop ettirish kabi vazifalar belgilanishi xususiy tashkilotlar jarayoni jadal ketayotgan milliy turizm sohasining rivoji uchun ayni zarurat edi. PF-1162-son va VM-210-son qarori hayotga tadbiiq etilishi bilan dastlab 1995 yil 1 iyuldan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi davlat hududida kuchga ega bo'lgan yagona turistik viza tartibini o'rnatdi [10; B.74].

Mamlakatda madaniy merosni saqlab qolish, muqaddas qadamjolarini tiklash, nomi unutilayotgan ajdodlarimiz xotirasi hamda merosini abadiylashtirish, obodonlashtirish uchun keng ko'lamda amalga oshirish ishlari boshlandi. Vazirlar Mahkamasining 210-sonli qarorida axborot sohasidagi ishlar alohida qayd etilgan – Kompaniya maxsus xalqaro turistik nashrni chiqarishda ishtirok etishi vazifasi amalga

o'shirilib, to'liq-rangli "Ipak yo'li" gazetasi chop etila boshlandi. Shuningdek, xalqaro turizm infratuzilmasini rivojlantirish va "Buyuk ipak yo'li" turistik yo'nalishini rivojlantirish to'g'risidagi Hukumat qaroriga muvofiq, kompaniya London va Berlin shahrida bo'lib o'tadigan yirik xalqaro turizm almashinuv yarmarkalarida ishtirok etish orqali milliy turistik mahsulotlar va loyihalarni xalqaro miqyosda targ'ib qilish faoliyatini olib bordi [11; B.2.]. 1995-2000 yillarda Buyuk Ipak yo'lida joylashgan qadimiy shaharlarda madaniy merosni asrash, tadqiq va tashviq etish, ularning to'liq ro'yxatini tuzish, ilmiy ta'mirlash va usta-kadrlar masalasi, madaniy meros yodgorliklaridan turizmni rivojlantirish uchun yanada samarali foydalanish, zamonaviy turizm infratuzilmasini barpo etish kabi tadbirlarni o'z ichiga olgan "Meros" dasturi 1995 yil avgustda ishlab chiqilib, hayotga tadbiriq etilishi turizmni rivojlantirish yo'lidagi choralardan biri bo'ldi [12; B.6-13]. Yevropa Ittifoqi xalqlari orasida qadimdan taniqli – "Buxoro", "Samarkanda", "Temurlano", "Via della Seta" ("Ipak yo'li") kabi mashhur brendlarning ta'siri kuchli bo'lganligi boisdan, ularning O'zbekistonga qiziqishlari yuqori darajada edi [13; B.152]. Shuningdek, O'zbekistonda katta xalqaro va turistik forumlar, konferensiyalar, shaharlar yubileylari, xalqaro sport musobaqalarini yoki MICE-turizm kabilarni ko'proq va doimiy tashkil etilganda turizmning kengayishiga va rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir qilgan bo'lar edi. Masalan, 1997-yilda Buxoro va Xiva shaharlarinig 2500 yillik yubileylari YUNESKO homiyligida keng targ'ibot asosida o'tkazildi. Bu tadbir natijasida O'zbekiston turizmi katta yutuqqa ya'ni 1997-yilda turistlar soni – qariyb 1 millionga yetib, ko'rsatilgan sayyohlik xizmatlarining hajmi – eksport daromadi esa deyarli 200 million dollarni tashkil etgan. Taqqoslansa, 1996- yilda turistlar tashrifi 173 ming kishini, undan kelgan daromad esa – 15 million dollar bo'lib, bu esa soha rivojlanishida va sayyohlar sonini ko'paytirishda turli xil xalqaro tadbirlar va tashviqotning kuchi qanchalik darajada ahamiyatli ekanligini yaqqol ko'rsatdi [14].

Sayyohlik va u bilan bog'liq tarmoqlardagi amalga oshirilayotgan xususiylashtirish jarayonidagi o'zgarishlar natijasida turistik turlari va tashkilotlarining ko'payishiga, kirish hamda chiqish turizmining o'sishiga, xalqaro sayyohlik aloqalarining kengayishiga pirovard natijada xalqaro va ichki sayyohlar sonining o'sishiga ta'sir qildi. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish davlat dasturiga muvofiq, chiqarildi va xususiylashtirildi. Ulardan o'ttizta mehmonxona va mehmonxona Kompaniya tizimiga kiruvchi 115 ta turistik obyektning 95 foizdan ortig'i davlat tasarrufidan majmuasi, 11 turistik markaz va kempinglar, 10 ta avtotransport obyekti, qurilish va savdo korxonalari, 6 ta mehmonxona besh-to'rt-uch yulduzli mehmonxonalar talablariga javob beradi. Jumladan 1997 yilda respublikada xalqaro turizm bilan shug'ullanish uchun litsenziya olgan turli mulkchilik shaklidagi 340 dan ortiq turistik korxonalar mavjud bo'lib, shundan 140 tasi Toshkent shahriga

to'g'ri keladi [15; B.1]. Bu davrda kompaniyalar katta qismi turistlarni qabul qilishdan ko'ra xorijga jo'natishga ixtisoslashgan bo'lib, ayniqsa sayyohlik turlaridan shopping-turlar, sayyohlarni dengiz bo'yida dam olishga jo'natish, diniy (ziyosat) turizmi, xorijda o'qish va davolanish kabi xizmat turlari ustunlik qiladi. Elita (madaniy) turizm faol rivojlanmoqda – bu boshqa xalqlar madaniyati va an'analarini o'rganish uchun sayohat qilish demakdir. „O'zbekturizm“ MK sayyohlik korxonalarini faoliyati asosan „O'zbekiston havo yo'llari“ kompaniyasining reyslari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lgan mamlakatlar – Turkiya, Hindiston, Pokiston, Bahrayn, Bangkok, BAA, Malayziya, Germaniya, Angliya, Gretsiya, Isroil, AQSh kabilarning markaziy shaharlarida vakolatxonalar ochish orqali xorijiy turoperatorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'ldi [16; B.1].

O'zbekistonning asosiy turistik maskanlari bo'lgan Buxoro va Xiva shaharlaridagi yodgorliklar muhofazasini kuchaytirish, viloyatlarning turistik salohiyatini jahonga namoyish etish, turizm industriyasini va infratuzilmasini zamon talablari darajasiga ko'tarish hamda Buxoro va Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan 1996 yil 3 yanvarda 1996-1997 yillarda Buxoroda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish dasturi ishlab chiqildi [17; B.33-37]. Dasturga ko'ra, bir qator davlatlar sayyohlari uchun vizasiz kirishni (Malayziya, Indoneziya tajribasi misolida) joriy etish hamda viza rasmiylashtirish vaqtini qisqartirib, viza to'lovi summasini kamaytirish kabilar chora tadbirlar belgilandi. Mazkur imtiyoz va yengilliklar ushbu tadbirlar doirasi bilan cheklandi. Agar bu choralar keyinchalik ham doimiy amaliyotga joriy etilganda turizmga xorijiy sayyohlarni yanda ko'proq jalb etishga omil bo'lardi. Davlat organlari faoliyat samaradorligini oshirish orqali madaniyat, fan va turizm sohasidagi xalqaro aloqalarni kuchaytirishga qaratilgan Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 25-sentabrdagi 335-son qarori qabul qilinib, unga ko'ra, Tashqi ishlar vazirligi tarkibida Madaniyat, fan va turizm sohasida xalqaro hamkorlik boshqarmasi tuzilishi, uning faoliyati respublika vazirlik, tashkilotlarning chet davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan madaniyat, fan va turizm sohasidagi xalqaro aloqalarini rivojlantirish va muvofiqlashtirish ekanligi belgilandi [18]. „O'zbekturizm“ MK oldiga xalqaro turizmni rivojlantirish uchun jahon standartlariga javob beradigan mehmonxonalarni ko'paytirish va ulardagi servis xizmatini yuqori darajaga ko'tarish, respublikaga turistlar oqimini ko'paytirish va xorijiy investorlarni jalb etish kabi asosiy vazifalar qo'yildi. Targ'ibot-tashviqot ishlari yo'lga qo'yildi. O'zbekistonning sayyohlik salohiyatiga bag'ishlangan ekspozitsiyalar tashkil etildi (O'zbekiston Respublikasi Savdo va ko'rgazmalar agentligida, Shveytsariyaning Altendorf shahrida). Yevropa sayyohlik operatorlari uchun muntazam seminarlar o'tkazish yo'lga qo'yilgan. O'zbekistonning sayyohlik salohiyati haqidagi ma'lumotlar dunyoning eng yirik kataloglariga kiritilgan. „O'zbekturizm“ MK uchun turizm xizmatlari bozorini

diversifikatsiya qilish, an'anaviy xalq bayramlari, turli tarixiy-madaniy tadbirlar, xalqaro kongresslar (ish turizmi), turli sport turlari bo'yicha musobaqalar, ekoturizmni turistik mahsulot sifatida taqdim etish kabilar kun tartibidagi dolzarb vazifalar edi. 1997 yilda "O'zbekturizm" sayyohlik borasida 100 ga yaqin yo'nalishlarni taklif etgan. Tog' turizmi, ovchilik va baliq ovlashni sevuvchilar uchun "O'zmaxsustur" o'z yo'nalishlarini ishlab chiqdi. Sport turlarini 8 ta kompaniya (AST, Yordamchi, Erta, AL-Geo, Pandsher, Asia-Raft, Toshkent turistik va sport klubi, Mountain Club) taklif etadi. "O'zbekturizm" MKning yo'nalish siyosati 1997-1998 yillarda, asosan, quyidagi asosiy yo'nalishlarda yanada rivojlantirish uchun : «Buyuk ipak yo'li» bo'ylab sayyohlik marshrutlari; Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan, temuriylar davri haqida hikoya qiluvchi marshrutlar; O'zbekistonda yashovchi xalqlarning etnografiyasi, madaniyati va urf-odatlarini haqida hikoya qiluvchi marshrutlar ishlab chiqildi. Mehmonxona xizmati borasida Kompaniya tomonidan sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xizmat ko'rsatishni yaxshilash bo'yicha muvaffaqiyatli ishlar olib borildi. O'zbekiston turizm bozorida "Meridian", "Intercontinental", "Holiday Inn" kabi xalqaro kompaniya va firmalar mustahkam o'rin egallamoqda. Muvaffaqiyatli amalga oshirilgan qator loyihalarni bu: "Hotel Uzbekistan" O'zbekiston-Malayziya qo'shma korxonasini tashkil etish, "La-Meridian-Tashkent" mehmonxona majmuasini to'liq mulkka sotish hamda Germaniyaning "Inpro" kompaniyasi tomonidan rekonstruksiya nihoyasiga yetkazilgan "Shodlik Palace" mehmonxonasi foydalanishga topshirildi. "Shodlik Palace"– mehmonxona boshqaruvi Germaniyaning Fon Kuzten Hotel and Consulting kompaniyasiga topshirildi, bu esa SRS-bronlash xizmati "Steingenberger" yordamida O'zbekistonga xorijlik sayyohlarni jalb qilishda omil bo'lmoqda. 1996-1997 yillarda Hindiston kompaniyasi tomonidan Samarqand va Buxoroda xalqaro toifadagi mehmonxonalar foydalanishga topshirildi. Xitoylik hamkorlar bilan birgalikda "Ziyorat" mehmonxonasi (Farg'ona) rekonstruksiya qilindi. "Larsen & Turbo" firmasi Xiva shahridagi mehmonxonani ta'mirlamoqda. Bu mehmonxonalar yaqin kelajakda sezilarli yuklanishi o'ziga olib, joylashtirish borasidagi o'rin joy yetishmasligi muammosini hal etishda ijobiy ta'sirini ko'rsatdi [19; B. 3-4]. Vazirlar Mahkamasi 1998-yil 8-avgustda 346-son "Sayyohlik tashkilotlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi qarorni qabul qilib, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasiga a'zo sifatida yangi tuzilma Xususiy sayyohlik tashkilotlari uyushmasini(XSTU) tashkil etilishi, uni boshqarish (qarorning 3, 4 ilovalari) va mazkur tashkilot Buyuk ipak yo'lini tiklashda, zamonaviy sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirishda, a'zo bo'lgan xususiy sayyohlik tashkilotlariga axborot, maslahat va uslubiy yordam ko'rsatish maqsad va vazifalarni bajarishini hisobga uning tuzilishi tasdiqlandi [20]. "O'zbekturizm" boshqaruvi ijro apparatida rais, rais yordamchisi,



birinchi o`rinbosar, 3 ta o`rinbosar shu jumladan xususiy sayyohlik tashkiloti uyushmasi raisi hamda 13 ta boshqarma va bo`limlar faoliyat yuritishi belgilangan. Mazkur qarorga ko`ra “O`zbekturizm” boshqaruvi ijro apparati tuzilmasi, 1999 yil 1 yanvargacha “Turizm to`g`risida”gi qonun loyihasini hamda sayyohlik xizmatlari sohasida yagona davlat standartlarini ishlab chiqish, 1999 yildan 2005-yilgacha bo`lgan davrda turizmni rivojlantirish Dasturini tuzish, turizmda xususiylashtirishni chuqurlashtirish, kichik sayyohlik tashkilotlarini chet ellik sarmoyadorlarga sotish va mehmonxona boshqaruviga xorijiy firmalarni jalb etish borasida aniq takliflar kiritishni o`z ichiga olgan qarorlar qabul qilindi. Yuqoridagi farmon ijrosini ta`minlash maqsadida 1999 yil 15 aprelda “2005 yilgacha bo`lgan davrda O`zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to`g`risida” farmon qabul qilinib, quyidagilar belgilandi[21]:

Birinchidan, mazkur dastur va uni amalga oshirish bo`yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tuzildi.

Ikkinchidan, sayyohlik tashkilotlari uchun qo`shimcha bojxona imtiyozlari berilib, unga ko`ra xorijdan import qilinadigan texnologiya va mehmonxona uskunalari, turistik xizmatlarga mo`ljallangan transport vositalari uchun bojxona poshinalari to`lashdan 3 yil muddatga ozod qilinishi hamda turistlarga erkin ayirboshlanadigan valyuta hisobidan xizmatlar ko`rsatishni tashkil etish tartibini va buning uchun maxsus kassalar tashkil etish,

Uchinchidan, O`zbekiston Respublikasining AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va Italiyadagi elchixonalarida madaniyat va turizm masalalari bo`yicha maslahatchi lavozim tashkil etilishi hamda turizm bo`yicha kuchli oliy o`quv yurtlarida malakali kadrlar tayyorlashni kuchaytirish borasida “Umid” jamg`armasi faoliyatini kengaytirish kabi yangi tartiblar va o`zgarishlar belgilandi. Ushbu chora tadbirlar yangi asr bo`sag`asida O`zbekistonda xalqaro turizmni yangi bosqichga ko`tarish uchun ijobiy qadam bo`ldi. Yuqoridagi PF-2286-son farmon asosida xorijiy sayyohlar uchun yanada ko`proq qulayliklar yaratish borasida davlat tomonidan e`tibor kuchayib, soha taraqqiyoti xizmat qiladigan yangi huquqiy normalar yaratilishiga asos bo`ldi. Jumladan “Xorijiy sayyohlarga erkin almashtiriladigan valyutada xizmat ko`rsatish tartibi” 1999-yil 13-mayda 727-son bilan davlat ro`yxatidan o`tkazilgan [22]. Unga ko`ra:

Birinchidan, “O`zbekturizm” MK korxonasi va tashkilotlar tomonidan mamlakat hududida sayyohlik va qo`shimcha xizmatlar ko`rsatish uchun xorijiy turistlardan erkin konvertatsiya qilinadigan naqd valyutani qabul qilish uchun korxonalar ro`yxati VM-346-son qarori bilan belgilangan.

Ikkinchidan, sayyohlik korxonalar tomonidan naqd erkin konvertatsiya qilinadigan valyuta bo`yicha turistlarga ko`rsatiladigan xizmatlar bo`lib quyidagilar

hisoblanadi: sayyohlarga ko`rsatiladigan mehmonxona va undagi barcha qo`shimcha xizmatlar bilan birga transport xizmati va ekskursiya xizmatlari.

Uchinchidan, turistik xizmatlar ko`rsatish litsenziyasiga ega bo`lgan sayyohlik kompaniyalari “O`zbekturizm” MK korxonalarini tomonidan ko`rsatilgan xizmatlar haqini plastik debet yoki kredit kartalari yoki naqd pulsiz hisob-kitoblarning boshqa shakllari orqali amalga oshirishi amaliyotlarini joriy etildi.

To`rtinchidan, sayyohlik korxonalarini turistik va qo`shimcha xizmatlarga haq to`lash uchun xorijiy turistlardan chet el valyutasini qabul qilish, saqlash va xizmat ko`rsatuvchi tashkilotlarga yetkazish uchun vakolatli banklarga topshirishi hamda xizmat ko`rsatishdan olingan valyuta tushumlarini belgilangan tartibda majburiy sotishi shartligi ko`rsatilib, bu tartiblarning to`g`ri bajarilishi uchun korxonalar rahbarlari shaxsiy javobgarligi belgilangan.

O`zbekistonda turizm sohasi rivojlanishini yangi pog`onaga ko`tarish, jadal o`shirish tendensiyasini ko`rsatayotgan jahon turizmi industriyasi darajasidagi moddiy texnik bazani ya`ni joylashtirish vositalarining hamma turlarini ko`paytirish, yangi davrning rivojlanish talablari va xalqaro standartlarga mos normativ huquqiy hujjatlar yaratish borasidagi sayi harakatlar natijasida iqtisodiyotning muhim strategik sohasining bosh huquqiy asosi bo`lgan 22 moddadan iborat “Turizm to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni 1999-yil 20-avgustda 830-I-son bilan qabul qilindi [23]. Ushbu qonunning yangiliklaridan biri uning matnida qo`llanilgan turizm sohasi bilan bog`liq tushunchalarning ya`ni turizm, turistik faoliyat, ekskursiya faoliyati, turistik resurslar, turistik faoliyat subyektlari, turistik industriya, tur, gid (ekskursiya yetakchisi), sertifikat kabilarning ta`riflari (3, 13-moddalarda) berilganligi bo`lib, masalan 3-modda asosiy tushunchalar deb nomlanib, undagi turist tushunchasiga — O`zbekiston hududi bo`ylab yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo`nab ketgan) jismoniy shaxs ekanligi ta`riflangan. Qonunning 4-moddasida turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo`nalishlari belgilanib, bunda doim e`tibor berilgan yo`nalishlardan turizm va turistik industriyani rivojlantirish, turizm sohasidagi normativ bazani takomillashtirish, turistlarning xavfsizligini, ularning huquqlari, qonuniy manfaatlari va mol-mulki muhofaza qilinishini ta`minlash kabilardan tashqari shu davrgacha kam e`tibor berilgan:

- a) bolalar, yoshlar, nogironlar va aholining kam ta`minlangan qatlamlari turizmi (ekskursiyalari) uchun sharoit yaratish borasida;
- b) turizm sohasining ilmiy ta`minotini tashkil etish va rivojlantirish;
- c) kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- d) turistik industriyani rivojlantirish uchun investitsiyalar jalb etish;

e) fuqarolarning sayohat qilish paytidagi dam olish, erkin harakatlanish va boshqa huquqlarini ta'minlash kabi yo'nalishlarga e'tibor kuchaytirilishi belgilandi.

Mazkur qonunning 5,6,7-moddalarida ijro etuvchi hokimiyat, vakolatli davlat organining hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining turizm sohasidagi vakolatlari, 8-moddasida turistik faoliyatni litsenziyalash ya'ni litsenziya asosida faoliyat amalga oshirilishi, 9-moddada turistik faoliyatni moliyalash manbalari, 10-moddada turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish va uning majburiyligi, undan bosh tortish, turistik xizmatlarni sertifikatlashtirishning natijasi salbiy bo'lishi sertifikatning amal qilishini bekor qilish turistik faoliyatni amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning amal qilishini to'xtatib qo'yishga yoki litsenziyadan mahrum etishga sabab bo'lishi belgilangan. Jumladan 13-modda sayyohlik yo'llanma (vaucher) haqida bo'lib, unga ko'ra bu — turistning yoki turistlar guruhining tur tarkibiga kiruvchi turistik xizmatlarga bo'lgan huquqini belgilovchi va bunday xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjat ekanli, 14,15-moddalarda turistlar huquqi va majburiyatlari, 16, 17- moddalarda turistik faoliyat subyekting huquqlari va majburiyatlari, 18, 19-moddalarda turistlarning xavfsizligiga davlat tomonidan kafolati berilishi va uni ta'minlash chora tadbirlari, 20-moddada sayyohlarni sug'urta qilish va uning majburiyligi kabi normalar joriy etilish bu jahon sayyohlik normalariga milliy turizmning me'yoriy huquqiy normalarini moslashtirish yo'lidagi ijobiy qadam edi [24]. "Turizm to'g'risida"gi qonuni va undan kelib chiqadigan chora tadbirlarni "O'zbekturizm" MK tomonidan amalga oshirilishi respublikada yuqori samarali va raqobatbardosh turizm majmuasini yaratish, sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish, sohaga chet el sarmoyasini olib kirish, turizm mahsulotlari va xizmatlarini diversifikatsiya qilish, korxonalarining o'zini-o'zi boshqarishini kengaytirish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash kabi vazifalarni ro'yobga chiqarish hamda turizm sohasini milliy iqtisodiyotning yetakchi sohasiga aylantirish edi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, turizm sohasining asosiy istemolchilari turist maqomidagi xorijiy fuqarolar uchun O'zbekistonga kirish, chiqish, bo'lish kabi qoidalar, mehmonxona va boshqa yashash joylarida turistlarning huquqlari, turizm subyektlarining majburiyatlari belgilanishi sayyohlar xavfsizligi ta'minlashga omil bo'ldi. JSTning "Buyuk Ipak yo'li"ni tiklash borasidagi taklifi va O'zbekistonning bu boradagi ijobiy qadamlari, "Meros" dasturi ishlab chiqilishi kabilar avvalambor xalqaro turizmni rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatli edi. Bu borada rivojlangan xalqaro turizm industriyasiga tezroq integratsiyalashuvini amalga oshirish, milliy turizm mahsulotlariga jahon sayyohlik tashkilotlari e'tiborini qaratish maqsadida Respublikada xalqaro turizmning zamonaviy industriyasi va infrastrukturasi barpo etish chora-tadbirlari ya'ni mehmonxonalarini rekonstruksiya qilish, qurilayotgan mehmonxonalarini tezroq qurib foydalanishga topshirish choralari olib borildi. Chet el

va mahalliy sarmoyadorlar uchun imtiyozlar berildi. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi hamda "Turizm to'g'risida"gi qonuni qabul qilinishi bilan turistik faoliyat subyekting huquqlari va majburiyatlari, turistlarning sog'ligi, xavfsizligiga davlat e'tiborining yanada kuchayishi, xalqaro aloqalarning kuchaytirilish kabi tartib va vazifalar belgilandi. Xalqaro turizmni rivojlantirishda ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda, 1991-1999 yillar davomida sohaning bir qator tarmoqlarida muammolar, rivojlanishga to'ganoq bo'ladigan hamda milliy turizm imijiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan tartib yoki qoidalar saqlanib qoldi. Bu esa keyingi davrlarda mamlakat turizmi oldidagi yechilish zarur bo'lgan vazifaga aylandi. Jumladan quyidagilarni keltirish mumkin: a) Jahon turizm bozorida milliy turistik mahsulotning targ'ibot tashviqoti ya'ni faol reklamasi yo'lga qo'yilmaganligi [25; B.59.], b) Viza tartibidagi kamchilik va noqulaylik lar, bojxona va chegaradagi turistlarni bezdiradigan rasmiyatchilikblarning ko'pligi ya'ni ma'muriy to'siqlar mavjudligi [26; B.117], c) Turistik mavsu davrida asosiy turistik markaz bo'lgan tarixiy shaharlarda joylashtirish vositalari-mehmonxonalarning kamligi va o'rin joylarning yetishmasligi, d) O'zbekistonga aviachiptalarning yuqori narxlari -"narx-qiyamat" jihatidan O'zbekistonning turistik yo'nalish sifatida cheklangan jozibadorligi hamda mehmonxona sanoatidagi narxlarning xizmat ko'rsatish darajasiga mos kelmasligi kabilardir [27; B.152-154].

#### Адабиётлар рўйхати / Список литературы / References:

1. O'zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro'yxat.38-Ish. 2-varoq
2. <https://lex.uz/docs/223878>
3. <https://www.lex.uz/uz/docs/566556?ONDATE=15.02.1993>
4. <https://lex.uz/docs/-1014149>
5. I.S.Tuxliev. Turizm asoslari. Samarqand. 2008. B-158
6. <https://lex.uz/docs/-1014149>
7. O'zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro'yxat.38-Ish. 2-varoq
8. I.S.Tuxliev. Turizm asoslari. Samarqand.2008. B-6
9. <https://lex.uz/docs/-182051?ONDATE=02.06.1995%2000#-1491810>
10. M.T.Alieva. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida). Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2019. B-74
11. O'zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro'yxat.38-Ish. 2-varoq.
12. O'zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro'yxat.38-Ish.6-13-varoqlar.

13. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1503-M-Fond. 1-Ro`yxat.44-Ish .152-varoq.
14. <https://data.worldbank.org/indicator/ST.INT.RCPT.CD?locations=UZ>
15. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.38-Ish. 1-varoq.
16. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.38-Ish. 1-varoq
17. O`zR MA. 141-M-Fond.1- Ro`yxat. 38-Ish. 33-37- varoqlar.
18. <https://lex.uz/docs/-475948>
19. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.38-Ish. 3-4-varoq
20. <https://lex.uz/docs/-838278?ONDATE=08.08.1998%2000#-905240>
21. PF-2286-сон 15.04.1999. 2005-yilgacha bo`lgan davrda O`zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to`g`risida (lex.uz)
- 22.727-сон 13.05.1999. Предоставления услуг иностранным туристам за свободно конвертируемую валюту (lex.uz)
23. 830-I-сон 20.08.1999. Turizm to`g`risida (lex.uz)
24. 830-I-сон 20.08.1999. Turizm to`g`risida (lex.uz)
- 25.M.T.Alieva. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari(O'zbekiston Respublikasi misolida). Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2019. B-59
26. M.T. Alieva. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihataari “Fan” Toshkent.2013.B-117
27. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1503-M-Fond. 1-Ro`yxat.44-Ish 152-154-varoqlar